KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

TOLIPOVA MALIKA SALOXIDINOVNA

“TAYM-MENEJMENT” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O`QUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.05 – Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 377.091.3:338.48

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Tolipova Malika Saloxidinovna
“Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o`quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish..... 3

Толипова Малика Салохидиновна
Совершенствование методики подготовки учащихся профессиональных образовательных организаций к профессиональной деятельности на основе технологии тайм-менеджмента. 23

Tolipova Malika Salokhidinovna
Improving the methodology for training students of vocational education institutions for professional activities based on time management technology. 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 52

KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

TOLIPOVA MALIKA SALOXIDINOVNA

“TAYM-MENEJMENT” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O`QUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.05 – Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped 6823 raqam bilan ro’yhatga olingan.

Dissertatsiya Kasbiy ta’limni rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o’zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iirpo.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdunazarova Nargiza Fatxullayevna** pedagogika fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Himmataliyev Do‘stnazar Omonovich** pedagogika fanlari doktori, professor
	Ergashev Bobirjon Boxodirovich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01-raqamli Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning 2025-yil “29” 12 soat 10 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel.: (+99871)246-92-17; faks: (+99871)246-92-17; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Kasbiy ta’limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (136-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “15” 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil “15” 12 dagi 6 - raqamli reyestr bayonnomasi).

R.X.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmi kengash raisi, p.f.d., akademik

S.Y. Ashurova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

X.Sh.Kadirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va mehnat bozorida kichik mutaxassislarga bo‘lgan talabning oshib borishi ta’limning har bir bosqichida ta’lim oluvchilarni kasbga yo‘naltirib o‘qitish zaruratini talab qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi iqtisodiyotning keskin o‘zgarishlariga moslashgan, har qanday sharoitda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash ta’lim tizimiga ega. Ilg‘or rivojlangan xorijiy mamlakatlar va yetakchi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan qabul qilingan[1] (WEF 2015) 2030 yilgacha ta‘limni rivojlantirish deklaratsiyasida (Incheon deklaratsiyasi) “o‘qitish va kasbga tayyorlashda turli xil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va kuchaytirish” doirasida dunyo ta’lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar, taraqqiyotning tezlashib borishi, kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini “Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo hamjamiyatida kasbiy ta’lim tashkilotlari bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbga yo‘naltirib o‘qitish, kasb tanlashga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, kasbiy ta’lim berish uchun pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlash, modellashtirish, o‘qitishning innovatsion, pedagogik va raqamli ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish, o‘quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalarini shakllanganlik darajalarini baholash mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini mustaqil kasb egasi bo‘lishga yo‘naltirish, ularning o‘zlari qiziqqan sohalarida iqtidor va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishi bosh omil hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash zarurati mavjud.

Mamlakatimizda kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda xalqaro andozalardan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish va mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilishi ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Bu o‘z navbatida, dual ta’limga yondashuvlarni va didaktik tamoyillarni singdirish, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, kasbiy ta’lim maktablari va oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi uzluksiz hamkorlikni kuchaytirishni hamda o‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

[1] https://iite.unesco.org/publications/education-2030-incheon-declaration-framework-action-towards-inclusive-equitable-quality-education-lifelong-learning/

to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni va “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son qarori, 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni hamda Prezidentning 2019-yil 5-yanvardagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4095-son qarori bilan tasdiqlangan “2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-son, 2020-yil 7-avgustdagi “Boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-son, 2022-yil 25-avgustdagi 475-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi hududida turistik (mehmonxona) yig‘imni undirish tartibi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlashga doir), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-269-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Kasbiy ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy, metodik va texnologik asoslarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masalalar mamlakatimiz olimlari tomonidan keng qamrovda o‘rganilib, ularning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy ta’limni takomillashtirishga qaratilgan samarali ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Xususan, bu yo‘nalishdagi muhim ilmiy izlanishlar R.X. Djuraev, N.A. Muslimov, Q.T. Olimov, S.Yu. Ashurova, Sh.S. Sharipov, M.B. Urazova, M.T. Mirsoliyeva, D.O. Ximmataliyev, O.A. Abduquddusov, E.K. Sultonov, O‘.X. Halimov, B.B. Ergashevlarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan[2].

[2] Djurayev R.H. Ta’limda interfaol texnologiyalar.-Toshkent, 2010.-87 b, Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy shakllantirishni nazariy-metodik asoslari: Dis. ...ped. fan. doktori-Toshkent, 2007.-9b, Mirsoliyeva M.T. Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoreferat. -T., 2019. Ximmataliyev D.O. O‘quv tarbiya jarayonida

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlardan G. A. Arxangelskiy, A. K. Gastev, P. M. Kerjentsev, T. Simina, G. Lapshina, S. S. Kotova, K. Boyko, S. I. Kalinin, I. Abramovskiy, M.A. Reunova taym-menejment nazariyasini shakllantirgan olimlar uni pedagogika, mehnat psixologiyasi va boshqaruv nazariyasi bilan uyg‘un holda o‘rganib, vaqt resurslaridan oqilona foydalanishning ta’limdagi ahamiyatini asoslab berganlar[3].

Xorijiy olimlardan S. R. Covey, B. Tracy, D. H. Pink, M. Gladwell, B. Oakley, E. Morin, E. Blair, R. V. Adams, D. Goleman, H. Öz, N. Karasar, K. Yilmaz, I. Doğan, C. Demir va boshqalar tadqiqotlarida zamonaviy taym-menejment nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutgan[4].

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Erasmus+ dasturi doirasidagi KA171-000172085 raqamli “Current trends in transnational education and higher education” mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kasbiy ta’lim tashkilotlarining turizm yo‘nalishlarida “taym-menejment” texnologiyasi asosida o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni va uni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;

“taym-menejment” texnologiyasiga asoslangan holda kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi metodik modelni ilmiy jihatdan takomillashtirish hamda uni ta’lim amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish;

kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassislarini “taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish;

kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalarini baholash mezonlarini takomillashtirish, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot obyekti: Kasbiy ta’lim tashkilotlarida turizm yo‘nalishi o‘quvchilarini “taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni.

---

o‘quvchilarning kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish (O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tashkilotlari misolida) Ped. Fan. Nomz. Ilmiy darajasini olishga yozilgan dissert. Toshkent, 2003.-50b

[3] Архангельский, Г.А. Тайм-драйв: - Как успевать жить и работать / Г.А. Архангельский. - М.: Манн, Иванов и Фербер, 2012. - 272 с., Т. Е. Симина, Т. А. Залыгина Тайм-менеджмент как эффективное средство управления временем работника образовательной организации Вестник РЭУ им. Г. В. Плеханова 2018 № 2 (98), Реунова, М.А. Аксиологический аспект самоорганизации времени студента университета / М.А. Реунова // Вестник Оренбургского государственного университета. - 2012. - №2. - С. 237-242. (Реестр ВАК)

[4] Стивен Кови. 7 навыков высокоэффективных людей. – М.: Манн, Иванов и Фебер, 2016. – 398 с. Трейси, Б. Путь к личной эффективности. Москва: Манн, Иванов и Фербер, 2015., Yilmaz, K. “Integrating time management technologies into teaching practices” Journal of Pedagogical Sciences, vol. 47, no. 4, 2019. 220-222-beblar., Demir, C. “The importance of time management technologies in the initial stages of professional education” Turkish Journal of Education, vol. 45, no. 3, 2020. 150-155-betlar.

Tadqiqot predmeti: “Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari turizm yo‘nalishi o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari: “Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga doir ilmiy, metodik va elektron manbalarni qiyosiy tahlil qilish, ta’lim jarayonini kuzatish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqtni boshqarish bo‘yicha tushuncha va kompetensiyalarini aniqlash uchun suhbat hamda anketa-so‘rovnomalar o‘tkazish, shuningdek, taym-menejmentga asoslangan pedagogik modelni joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va ularning natijalarini matematik-statistik usullarda qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“taym-menejment” texnologiyasidan foydalanilgan holda kasbiy ta’limning turizm yo‘nalishlarida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid pedagogik shart-sharoitlar ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega turistik muammolarni hal etish, turizm sohasiga doir qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish, sohaga barqaror qiziqish va ichki motivatsiyani rivojlantirish, shuningdek, o‘quv jarayonining raqamli-uslubiy ta’minotini takomillashtirish orqali asoslab berilgan;

kasbiy ta’limning turizm mutaxassisliklarida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan metodik model maqsaddan kutilayotgan natijaga yo‘naltirilgan holda metodologik, mazmuniy va diagnostik komponentlarning o‘zaro uzviyligi, turli metodologik yondashuvlar, ta’limiy funksiyalar hamda umumdidaktik va sohaga oid maxsus tamoyillarga tayangan tarzda takomillashtirilgan;

kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turim mutaxassislarini kasbiy faoliyatga “taym-menejment” texnologiyasi asosida tayyorlash metodikasi individualdan xususiyga, xususiydan umumiy bilim darajasiga ko‘tarilishni ta’minlaydigan didaktik asoslarni refleksiv tahlil qilish, va dialektik yakuniy natijani uyg‘unlashtiruvchi metodologiya asosida takomillashtirilgan;

kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassislarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligi rivojlanganlik darajalarini (past, o‘rta, yuqori) baholashga xizmat qiluvchi motivatsion, kognitiv, faoliyatli va shaxsiy mezonlar “taym-menejment” texnologiyasi asosida — vaqtni rejalashtirish, ustuvor vazifalarni belgilash, vaqt resurslaridan unumli foydalanish hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichlari bilan boyitilgan holda takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan “Turizm va mehmondo‘stlik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan “Kasbiy faoliyatda chet tili” darslik, “Kasbiy kommunikatsiyada xorijiy til” nomli o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan “Turizm va mehmondo‘stlik asoslari” nomli mobil ilova ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

“Kasbiy faoliyatda chet tili”, “Kasbiy kommunikatsiyada xorijiy til” kabi kasbiy ta’lim yo‘nalishlariga oid bir qator o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish jarayonida faol ishtirok etilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari asosida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasbiy ta’lim muassasalarida “Taym-menejment” texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini rivojlantirish yo‘llari asoslab berildi; mazkur jarayonni ta’minlab beruvchi pedagogik shart-sharoitlar tizimi aniqlanib, ta’lim jarayonini turli metodologik yondashuvlar uyg‘unligida tashkil etish mexanizmlari yoritildi, fan dasturlarining mazmuni kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kasbiy ta’lim tizimida “Taym-menejment” texnologiyasini samarali joriy etish asosida turizm sohasi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun real amaliy imkoniyatlar yaratiladi. Xususan, ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yilgan davlat talablari asosida yangi metodik yondashuvlarni shakllantirish, shuningdek, o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasini oshirishga xizmat qiluvchi o‘quv qo‘llanma, darslik hamda raqamli-uslubiy ta’minot tizimini yaratish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyati vujudga keladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubi va amaliy takliflar asosida:

“taym-menejment” texnologiyasidan foydalanib, kasbiy ta’limining turizm yo‘nalishlarida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega turistik muammolarni hali qilish, turizmga oid qarorlarni qabul qilish, qiziqish va motivlarni shakllantirish hamda raqamli-uslubiy ta’minotni takomillashtirish asosida ta’minlashga doir takliflar “Turizm va mehmondo’stlik asoslari” nomli o‘quv qo’llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 25 iyundagi №248-sonli buyrug’i).

“Turizm va mehmondo`stlik asoslari” fanidan o‘quv jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan android mobil ilovasi (O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligining № DGU 53477) ishlab chiqilgan . Natijada ta’minlangan pedagogik

shart-sharoitlar bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishda o‘qitish va kasbga tayyorlashda turli xil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va kuchaytirishga qaratilgan “Kasbiy faoliyatda chet tili” darslikgi yaratilgan, hamda kasbiy ta’limning turizm yo‘nalishlarida o‘quv jarayoniga tadbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 25 iyundagi №218-sonli buyrug’i). Natijada ta’minlangan pedagogik shart-sharoitlar bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turim mutaxassislarini kasbiy faoliyatga “taym-menejment” texnologiyasi asoida tayyorlash metodikasini takomillashtirish, bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlanganligini past, o`rta, yuqori darajalrini baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli, va shaxsiy mezonlari “taym-menejment” texnologiyasi asosida takomillashtirishga doir takliflar “Kasbiy kommunikatsiyada xorijiy til” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim,fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27- martdagi № 68-sonli buyrug’i). Natijada ishlab chiqilgan model bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop ettirilgan, shulardan 1 ta darslik, 2 ta o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan Respublika ilmiy nashrlarida 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqolalar nashr qilingan. Intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan; muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti hamda predmeti shakllantirilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **““Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida o‘rganilgan, kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga “taym-menejment” texnologiyasi asosida tayyorlashning nazariy asoslari va “taym-

menejment” texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asoslari va ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili keltirib o‘tilgan.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy adaiyotlar va ilmiy-tadqiqot islari, kasbiy ta’lim ta’limida turizm yo‘nalishi malaka talablari, mutaxassislik fanlari fan dasturlari tahlil qilindi. Tahlillar natijalariga ko‘ra mavjud mammolar aniqlanib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Aniqlangan mammolar yechimini topish uchun metodologik asoslarni ishlab chiqish, didaktik shart-sharoitlarni ta’minlash lozimligi aniqlandi.

Shaxsiy vaqtni boshqarish tizimini ishlab chiqish uchun quyidagi 10 qadamni bajarish zarur: *dam olish, motivatsiya, maqsadlar qo‘yish, “moslanuvchan” vazifalarni tanlash, rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, axborot muhitini to‘g‘ri tashkil etish, vaqtni iste‘mol qiluvchi omillarni aniqlash va vaqtni boshqarish texnologiyalarini hayotga joriy etish (*G.A.Arxangelskiy*).*

Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “taym-menejment” yoki vaqtni boshqarish texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiya orqali o‘quvchilar o‘quv faoliyatiga sarflanadigan vaqt miqdorini ongli ravishda nazorat qilishni o‘rganadilar, natijada ularning ta’lim olish jarayonidagi samaradorligi ortadi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash — bu o‘quvchilarni ularning kelajakdagi kasbiy hayotiga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon davomida o‘quvchilarga kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, amaliy tajriba va kerakli malakalar beriladi, shuningdek, ularning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratiladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy maqsadi — bo‘lajak mutaxassislarni mehnat bozorida raqobatbardosh qilib yetishtirish, ularni amaliyotga tayyorlab, sohaning real sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yo‘naltirishdir.

Kasbiy faoliyat shaxsiy rivojlanish, jamiyat va iqtisodiyotga hissa qo‘shish, ijodkorlik va innovatsiyalarni joriy etish, kasbiy etikaga rioya qilish hamda mos kasb tanlash orqali muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat mutaxassining raqobatbardoshligini oshiradi, balki milliy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta’minashga ximat qiladi.

Taym-menejment texnologiyasi asosida o‘qitish kasbiy ta’limda samaradorlikni oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar vaqtni boshqarish, maqsadlarni to‘g‘ri belgilash va o‘z resurslarini samarali taqsimlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa, nafaqat ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishda, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham samarali ishlashga yordam beradi. Taym-menejment texnologiyasi o‘quvchilarning darslarda intizomli bo‘lishiga, maqsadga yo‘naltirilgan holda ishlashlariga va ular uchun muhim bo‘lgan vazifalarni belgilangan muddatda bajarishga ko‘mak beradi.

“Taym-menejment” tushunchasi birinchi bo‘lib XX asrning 70-yillarida K.Möller tomonidan ommalashtirilgan bo‘lib, u Time management International kompaniyasini tashkil etgan va zamonaviy tashkilotchining prototipini ishlab

chiqqan. “Taym-menejment” atamasi ingliz tilidan “vaqtni boshqarish” deb tarjima qilingan. *Taym-menejment* – bu muayyan faoliyatga sarflangan vaqtni, ayniqsa unumdorlik va samaradorlikni oshirish uchun ongli ravishda nazorat qilishni rejalashtirish va amalga oshirish jarayoni. U ish, o‘qish, ijtimoiy hayot, oila, sevimli mashg‘ulotlar, shaxsiy manfaatlar va vaqt o‘tishi bilan cheklangan majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil inson talablarini o‘z ichiga oladi. Taym-menejment tizimi-bu jarayonlar, vositalar, texnikalar va metododlarning puxta o‘ylangan kombinatsiyasi.

“Taym-menejment” pedagogik texnologiyasi metodologik jihatdan konseptuallik, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik va takrorlanish kabi texnologik talablarga javob beradi. Bu texnologiya ilmiy nazariyaga asoslanib, vaqtni samarali tashkil etishning falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini o‘z ichiga oladi, shu orqali ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlaydi (1-jadval).

1-jadval.

“Taym-menejment” texnologiyasi xususiyatlari

№	“Taym-menejment” texnologiyasi xususiyati	Mazmuni
1	**Konseptuallik**	“Taym-menejment” texnologiyasi ilmiy asoslangan konsepsiyaga ega bo‘lib, o‘quvchilarni vaqtni oqilona rejalashtirish, ustuvor vazifalarni belgilash va resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltiradi. Vaqtni faqat nazorat qilish emas, balki uni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqishga asoslanadi.
2	**Tizimlilik**	Texnologiya ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini yagona tizim sifatida birlashtiradi. O‘qitish, mustaqil ish, baholash va amaliy mashg‘ulotlar vaqtni boshqarish tamoyillari bilan uyg‘unlashgan holda tashkil etiladi. Natijada o‘quvchilar vaqtni oqilona taqsimlab, bilimlarni izchil va samarali o‘zlashtiradilar.
3	**Boshqaruvchanlik**	Aniq rejalashtirish, muntazam tahlil va samarali nazorat mexanizmlariga asoslanadi. O‘qituvchi va o‘quvchiga belgilangan rejadan chetlanmaslik, zarurat tug‘ilganda tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Topshiriqlarning belgilangan vaqt chegarasida sifatli bajarilishini ta’minlaydi.
4	**Samaradorlik**	Vaqtni tejash va oqilona taqsimlash orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar qisqa vaqt ichida ko‘proq vazifani bajarishga erishib, o‘zlashtirish darajasini oshiradilar. Mazkur jarayon ularda mustaqillik, mas’uliyat va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
5	**Takrorlanish (universallik)**	Texnologiya moslanuvchan bo‘lib, turli fanlar, ta’lim bosqichlari va sohalarda qo‘llanishi mumkin. Takroriy qo‘llash natijasida vaqtni boshqarish ko‘nikmalari yanada mustahkamlanadi va texnologiyaning universalligi ta’lim jarayonida keng imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik texnologiya- “texnologiya” atamasi yunoncha “techno” va “logos” so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “hunar yoki fanni o‘rganish” degan ma’noni anglatadi. Atama texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida muomalaga kiritilgan va mazkur tushuncha bugungi kunda mazmun va mohiyatiga ko‘ra turli fan va sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda[5].

[5]Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – 132 b.

“Taym-menejment” pedagogik texnologiyasi = maqsad (o‘quvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam berish) + vazifalar (o‘quvchining kasbiy rivojlanishi uchun vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish) + mazmun (fan bo‘yicha bo‘limlar) + usullar (muhokama, dialogik, evristik) + o‘qitish shakllari (lektsiyalar, amaliy darslar, mustaqil ish)[6].

“Taym-menejment” texnologiyasi – bu o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida hamkorlikda ta’lim jarayonini loyihalashtirish va o‘tkazish uchun puxta ishlab chiqilgan modeldir. O‘quvchilar bu texnologiyani o‘zlashtirgan holda, o‘z vaqtini to‘g‘ri rejalashtirish, maqsad qo‘yish, ustuvorliklarni belgilash va vaqt resurslarini oqilona boshqarish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishi zarur. Bu ularga o‘quv topshiriqlarini kam vaqt sarflab bajarishga, motivatsiyani oshirishga va qisqa muddatda kasbiy va shaxsiy maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Metodologiya (“metod” va “logiya”) - bu metodlar va faoliyat vositalari haqidagi ta’limot[7].

“Taym-menejment” texnologiyasi pedagogik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni motivatsion-aksiologik, kognitiv-axborot, operatsion-faoliyat va refleksiv-baholash komponentlari orqali ko‘rib chiqish mumkin. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida “Taym-menejment” texnologiyasi asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asoslarini metodologik yondashuvlar *(kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kontekstual)* va umumdidaktik tamoyillar *(motivatsion, kognitiv, faoliyatli, va shaxsiy mezonlari)* tashkil qildi (2-jadval).

2-jadval.

“Taym-menejment” texnologiyasining tarkibiy komponentlari mazmuni

№	Komponent nomi	Ta’rif
1	**Motivatsion-aksiologik komponent**	Motivatsion-aksiologik komponent – o‘quvchilarda vaqtni shaxsiy va kasbiy qadriyat sifatida anglash, o‘z o‘qishi va kelajak kasbiy faoliyati uchun mas’uliyat hissini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Motivatsion-aksiologik komponent doirasida o‘quvchilar kasbiy maqsadlarni belgilash, “vaqtni tejash – kasbiy muvaffaqiyat garovi” ekanini idrok etish, turizm va mehmondo‘stlik sohasida samarali ish yuritish uchun intizom, mas’uliyat, punktuallik kabi sifatlarni egallab boradi. Bu komponent integrativ kompetensiyalarning aksariyat jihatlarini – kasbiy motivatsiya, qadriyatlar tizimi, maqsadga yo‘naltirilganlikni ta’minlovchi asosiy “drayver” sifatida namoyon bo‘ladi.
2	**Kognitiv-axborot komponent**	Kognitiv-axborot komponent – “taym-menejment” texnologiyasi bo‘yicha zarur nazariy bilimlar, tushunchalar va me’yoriy-uslubiy ma’lumotlar tizimini o‘z ichiga oladi. Unda vaqtni boshqarishning ilmiy asoslari, rejalashtirish, ustuvorliklarni aniqlash, vaqtni yo‘qotuvchi omillarni tahlil qilish, raqamli rejalashtirish vositalaridan foydalanish hamda turizm va mehmondo‘stlik sohasining kasbiy standartlari bilan bog‘liq bilimlar shakllantiriladi. Kognitiv-axborot komponent orqali o‘quvchilarda vaqtni boshqarish bo‘yicha nazariy tayyorgarlik, kasbiy axborot bilan ishlash ko‘nikmalari, integrativ kompetensiyalarning kognitiv bazasi yaratilib boradi.
		Operatsion-faoliyat komponent – “taym-menejment” texnologiyasini bevosita amaliyotga tatbiq etish, ya’ni o‘quvchilar tomonidan o‘z o‘quv va kasbiy

[6]Savina N.V., Lopanova E.V. Taym-menedzhment v obrazovanii: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – Moskva: Izdatel’stvo Yurayt, 2020. – 162 s.

[7]Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi: Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 400 b.

3	**Operatsion-faoliyat komponent**	faoliyatini vaqt nuqtai nazaridan oqilona tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu komponent doirasida o‘quvchilar dars, mustaqil ta’lim, amaliyot va dual ta’lim jarayonidagi vazifalarni rejalashtirish, ish kuni va ish haftasini strukturaviy taqsimlash, muddat (deadline)larga rioya qilish, vazifalarni ketma-ketlikda bajarish, zarur hollarda ishni segmentlarga ajratish va optimallashtirish kabi amaliy harakatlarni egallaydilar. Natijada “taym-menejment” texnologiyasi o‘quvchining amaliy faoliyati bilan integratsiyalashib, kasbiy kompetensiyalarning real vaziyatlarda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.
4	**Refleksiv-baholash komponenti**	Refleksiv-baholash komponenti – o‘quvchilarning o‘z faoliyati natijalarini, vaqt resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, baholash va zarur tuzatishlar kiritish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu komponent doirasida o‘quvchilar bajarilgan ishlar monitoringi, rejalashtirilgan va real vaqt sarfi o‘rtasidagi tafovutni aniqlash, xatolar va vaqt yo‘qotish sabablari ustidan fikr yuritish, keyingi davr uchun samaraliroq strategiyalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadilar. Refleksiv-baholash komponenti integrativ kompetensiyalar tarkibidagi o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini baholash, kasbiy o‘sishni mustaqil rejalashtirish kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi hamda “taym-menejment” texnologiyasining yakuniy natijaviy bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotimizda *51010701 – Turizm mutahassisligi va 51010401-Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish* mutaxassisliklarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni amalga oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalarga tayandik. Germaniya, Finlandiya, Turkiya va yana bir nechta davlatlarining kasbiy ta’limida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha tajribalari biz uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Taym-menejment samarali ishlash va shaxsiy hamda kasbiy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir. Quyida vaqt boshqarishning bir nechta asosiy usullari keltirilgan:

Pomodoro usuli. Bu usul, o‘rganish yoki ishlash sessiyalari orasida qisqa dam olish tanaffuslarini o‘z ichiga olgan vaqt boshqarish texnikasidir. Odatda, bu usulda 5 daqiqali faol ish (Pomodoro) va 5 daqiqali tanaffuslar qo‘llaniladi. Bu sikllar to‘rt marta takrorlangandan so‘ng, uzoqroq tanaffus qilinadi.

Eisenhower Matrixi. Bu usul vazifalarni muhimligi va shoshilinchligi asosida to‘rt kategoriyaga ajratadi: muhim va shoshilinch, muhim lekin shoshilinch emas, muhim emas lekin shoshilinch, muhim ham emas shoshilinch ham emas. Bu matritsa orqali, foydalanuvchilar o‘z vaqtini qanday sarflash kerakligini aniqlay oladilar[8].

ABC usuli. Vazifalarni ahamiyat darajasi bo‘yicha tasniflashni o‘z ichiga oladi, bu yerda “A” eng muhim vazifalarni, “B” o‘rta darajadagi ahamiyatga ega vazifalarni va “C” eng kam ahamiyatli vazifalarni bildiradi. Har bir harf uchun vazifalar prioritizatsiya qilinadi va mos ravishda bajariladi.

80/20 qoidasi (Pareto prinsipi). Bu qoida bo‘yicha, 80% natijalar 20% harakatlardan kelib chiqadi. Vaqt boshqarishda bu prinsipni qo‘llash orqali,

[8]Bast F. Crux of time management for students // *Resonance.* – 2016. – Vol. 21, No. 1. – P. 71–88.

odamlar o‘z kuchlarini eng yuqori samarani beradigan faoliyatlarga qaratishlari mumkin[9].

To-do ro‘yxati (Rejalashtirish ro‘yxatlari). Kunlik yoki haftalik vazifalarni ro‘yxatini tuzish va ularni bajarishni kuzatib borish, vaqt boshqarishda juda yaxshi usul hisoblanadi. Bu yondashuv, vazifalarni unutmaslik va ularni tizimli tarzda bajarish imkonini beradi.

Bu usullar, turli sohalardagi o‘quvchilar uchun vaqtini samarali boshqarishda yordam beradi va ularning ish samaradorligini oshiradi. Har bir usulning o‘ziga xos xususiyatlari bor va shaxsiy yoki kasbiy ehtiyojlarga qarab tanlanishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o`quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni “taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli va pedagogik shart-sharoitlari, kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni “taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodlari va didaktik ta’minoti, kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni “taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi keltirib o‘tilgan.

“Taym-menejment” texnologiyasidan foydalanish asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan model ishlab chiqildi. Mazkur model ushbu jarayonni samarali tashkil etish va konstruktsiyalash algoritmi sifatida qaralib, quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: *maqsadli, metodologik, mazmunli, va diagnostik* (1-rasmga qarang).

Maqsadli komponent: maqsad: kasbiy ta‘limda o‘quchilarni “taym menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.

Metodologik komponent: yondashuvlar: kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kontekstual; tamoyillar: maqsadga yo‘naltirilganlik, tizimlilik, uzluksizlik, samaradorlik, refleksivlik va ehtiyojlarga yo‘naltirilganlik.

Mazmuniy komponent: og‘zaki tushuntirish, mustaqil bilim olish va bilimlarni qo‘llash, kasbiy faoliyatga tayyorgarligini baholash uchun diagnostika; shakllar: o‘qituvchi yordamida ta’lim olish (nazariy mashg‘ulotlar), mustaqil ta’lim olish (amaliy mashg‘ulotlar), o‘z-o‘zini rivojlantirish ta’limi, , treening mashg’ulotlari, mahorat darslari; vositalar: kompyuter va texnik vositalar, tarqatma materiallar, amaliy ishlanmalar, ko’rgazmali materiallar, o‘quv qo‘llanmalar, mobil ilovalar; sharoitlar: o‘quvchilarni mustaqil ishlarga jalb qilish; ta’lim va vaqtning ahamiyatini tushuntirish orqali o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish; diagnostika kompleksi yordamida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tashkil etish rivojlanishini monitoring qilish.

Diagnostik komponent: o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini baholash mezonlari: motivatsion, kognitiv, faoliyatli va shaxsiy; rivojlanganlik darajalari: past, o‘rta, yuqori daraja.

---

[9]Koch R. *The 80/20 Principle: The Secret to Achieving More with Less.* – New York: Crown Currency, 1999. – 336 p.

Pedagogik shart-sharoitlar – bu o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘quv dasturi, ta’lim texnologiyalari, moddiy-texnik baza va ijtimoiy-psixologik muhitning o‘zaro bog‘liq hamda uyg‘un tizimidan iborat o‘quv muhitidir. Ana shu muhit ta’sirida ta’lim oluvchining shaxsi har tomonlama rivojlanib, o‘zining noyob individual qiyofasini shakllantiradi. Pedagogik shart-sharoitlar insonning jismoniy, psixik, intellektual va axloqiy jihatlarini bosqichma-bosqich va kompleks ravishda rivojlantiradi. Shu ma’noda ular faqat tashqi omillar majmui emas, balki ta’lim oluvchining shaxs sifatida kamol topishi hamda kasbiy va hayotiy o‘zini-o‘zi anglashini ta’minlaydigan ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogik shart-sharoitlarning tasnifi uchta asosiy guruhga ajratiladi: *tashkiliy-pedagogik sharoitlar, psixologik-pedagogik sharoitlar, didaktik sharoitlar.* Ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan uchta pedagogik shart-sharoitlar guruhi – tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik – ichki pedagogik sharoitlar hisoblanadi, chunki ularni o‘zgartirish va takomillashtirish mumkin. Tashqi pedagogik sharoitlar esa o‘zgartirib bo‘lmaydigan omillarni o‘z ichiga oladi, masalan: geografik, tabiiy, iqlimiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlar.

Taym-menejment texnologiyasi asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda bir qator innovatsion ta’lim metodlaridan foydalandik.

Progressive Time Layering Method (PTLM) – bu o‘quvchilarda vaqtni samarali boshqarish, rejalashtirish va kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metoddir. “Progressive” so‘zi jarayonning izchilligi va o‘sish bosqichlarini anglatadi, “time layering” esa vaqtni qatlamli tarzda taqsimlash orqali faoliyatni optimallashtirish g‘oyasini bildiradi. Ushbu metod o‘quvchilarga bir nechta vaqt qatlamlarini – strategik, taktika va operativ bosqichlarni – o‘zaro uyg‘unlikda rejalashtirishni o‘rgatadi. Natijada, o‘quvchi nafaqat vaqt resursini, balki o‘z faoliyatini ham tizimli boshqarishni o‘zlashtiradi.

WOOP metodi (Wish (istak) – *Outcome* (natija) – *Obstacle* (to‘siq) – *Plan)* (reja)— bu o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan fikrlash va o‘z-o‘zini motivatsiya qilishni shakllantiruvchi psixologik-pedagogik metoddir.

WOOP metodining afzalligi shundaki, u o‘quvchini o‘z orzulariga real, rejalashtirilgan yondashuv bilan qarashga o‘rgatadi. Turizm yo‘nalishidagi o‘quvchilar uchun bu metod ayniqsa muhim, chunki u shaxsiy maqsadlarni kasbiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish, xizmat ko‘rsatishda ijobiy natijaga erishish uchun ichki motivatsiyani kuchaytiradi.



1-rasm. "Taym-menejment" texnologiyasi asosida kasbiy ta'limda o'quvchilani kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli

Real-Time Collaboration (RTC) metodi – bu jamoaviy hamkorlik, vaqtni boshqarish va tezkor muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik metoddir. Metodning asosiy mohiyati o‘quvchilarning real vaqt rejimida o‘zaro hamkorlikda ishlashidir. RTC texnologiyasi o‘quvchilarni virtual yoki real muhitda birgalikda faoliyat yuritish, masalani tahlil qilish va jamoa qarorini ishlab chiqish jarayoniga jalb etadi. Har bir o‘quvchi o‘zining roliga ega bo‘lib, masalan, rahbar, tahlilchi, taqdimotchi yoki kuzatuvchi sifatida jamoada faol ishtirok etadi. RTC metodini amaliy mashg‘ulotlarda, xususan, turizm amaliyotlari, mehmonxona xizmatlari, ekskursiya tashkiloti kabi yo‘nalishlarda qo‘llash o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

PULSE metodi (Plan – Understand – Learn – Share – Evaluate) — bu o‘quvchilarning faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy o‘qitish texnologiyasidir. Metod nomidagi besh bosqich o‘quv jarayonining to‘liq siklini tashkil etadi:

Plan (rejalashtirish) – o‘quvchi maqsadni aniqlaydi va faoliyatni rejalashtiradi;

Understand (tushunish) – mavzuni chuqur tahlil qiladi, mohiyatni anglaydi;

Learn (o‘rganish) – nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi;

Share (bo‘lishish) – o‘z fikr va tajribasini guruh bilan baham ko‘radi;

Evaluate (baholash) – o‘z faoliyatini va jamoaviy natijani tahlil qiladi.

PULSE metodi turizm va mehmondo‘stlik sohasida kasbiy muloqot, tezkor qaror qabul qilish, xizmat sifatini tahlil qilish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Biz tomonimizdan kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini “taym-menejment” texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash didaktik ta’minoti rivojlantirildi: kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan “Turizm va mehmondo‘stlik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan; kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan “Kasbiy faoliyatda chet tili” darslik, “Kasbiy kommunikatsiyada xorijiy til” nomli o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan; kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorgarigini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan; kasbiy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak turizm mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan “Turizm va mehmondo‘stlik asoslari” nomli mobil ilova ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

O‘quvchilar o‘z shaxsiy vaqtni boshqarish tizimini qurish uchun vaqtni boshqarishga oid quyidagi tarkibiy komponentlar bilan tanishdilar: maqsad qo‘yish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, rejani amalga oshirish va tashkil qilish, nazorat (o‘z-o‘zini nazorat qilish va tahlil), axborot va kommunikatsiya. Amaliy mashg‘ulotlar davomida vaqtni boshqarishning tegishli usullari (self-menedjment, mind-menedjment)ni qo‘llashga doir ishlar olib borildi. Ushbu mashg‘ulotlar kursning asosiy qismi bo‘lib, ular besh amaliy mashg‘ulotni o‘z ichiga oldi.

Ta’lim davomida o‘quvchilar “Eyzenxauer matritsasi”, “Franklin tizimi”, “Pareto prinsipi”, “A, B, C tahlili”, “SMART maqsadlari”, “WOOP”, “Progressive

